

## Omon Matjon ijodida Beruniy obrazi

*Abdusharifova Sarvinoz Sobirjon qizi*

*Urganch davlat universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti 2-bosqich talabasi*

[abdusharifovasarvinoz@gmail.com](mailto:abdusharifovasarvinoz@gmail.com)

**Annotatsiya** Ushbu maqolada o'zining sodda, ravon uslubi, hech kimnikiga o'xshamaydigan she'riyati bilan xalqimiz qalbidan joy olgan Xorazm adabiy muhiti vakili, shoir Omon Matjonning "Beruniy" dramatik dostoni hamda "Haqqush qichqirig'i" kitobidan o'rin olgan "O'n uchinchi eshik" afsonasini tahlil qilgan holda, Beruniy obraziga to'xtalamiz.

**Kalit so'zlar:** "Beruniy" dramatik dostoni, "O'n uchinchi eshik", realistik obraz, Beruniy.

O'zbek nazmida xalqning ulug' farzandi, yuksak qalam sohibi Omon Matjonning o'rni beqiyos. Xususan, uning she'rlari g'oya va mazmun jihatdan hech bir ijodkorga o'xshamas ohanglar tarannum etgan. Shoir ijodi orqali yetkazmoqchi bo'lgan fikr-g'oyalarni turli obrazlar vositasida yoritib bergan. Matjon o'g'li Omon ijodida obrazning bir qancha turlarini uchratishimiz mumkin.

Ayniqsa, shoir ijodida realistik obrazlar alohida ahamiyatga egadir.

Realistik obraz hayot haqiqatiga monand obrazlar bo'lib, ular jonli odamlarga xos bo'lgan xususiyatlarni o'zida mujassamlashtiradi[1:57]. Omon Matjon ijodida ham obrazning bu turi tarixiy asardagi voqea- hodisalarni real fakt va dalillar bilan xolis baholashga xizmat qiladi. Shu jumladan, shoir ijodida Beruniy, Najmiddin Kubro, Pahlavon Mahmud kabi tarixiy siymolar qalamga olinib, ular vositasida o'sha davrdagi siyosiy vaziyat, shohlar o'rtasidagi keskin kurashlar natijasida yuz bergan ijtimoiy ahvol, shu bilan birgalikda, turli mojarolarga qaramasdan Markaziy Osiyoning ilm-u ma'rifat o'chog'i ekanligi mohirona tasvirlangan. Obrazlar tizimiga nazar tashlaydigan bo'lsak, barchasi o'ziga xos sujet yaratish uchun xizmat qilgan. Ularning orasida shunday bir obraz borki, bevosita o'quvchi ko'z oldida uning siymosida ilm- fan taraqqiyotiga o'zining ulkan hissasini qo'shgan olim gavdalanadi. Bu personaj Beruniydir. Beruniy obrazi shoirning "Beruniy" dramatik dostoni hamda "Haqqush qichqirig'i" kitobidan o'rin olgan o'ttiz oltinchi afsona, ya'ni "O'n uchinchi eshik" she'rida bosh obraz sifatida gavdalansa, ijodkorning ayrim she'rlarida mazkur obraz mahalliy koloritni ochib berish uchun qo'llangan. E'tiborlisi

shundaki, asarlarda Beruniy xoh bosh obraz bo‘lsin, xoh epizodik obraz bo‘lsin, o‘ziga xos ko‘rk bag‘ishlagan.

Biz ushbu maqolada Omon Matjonning “Beruniy” dramatik dostoni, shu jumladan, “O‘n uchinchi eshik” she‘rlarini o‘rgangan holda Beruniy obraziga tavsif beramiz.

Xususan, Omon Matjonning olim hayoti bilan bog‘liq holda yaratilgan dramatik dostonida Beruniy shaxsiyati to‘laqonli haqqoniy tasvirlangan.

Doston Beruniyning Xorazmga tashrifi bilan boshlanadi. Ko‘rinadiki, qadimda har bir qudratli podsho o‘z mamlakatini yuksaltirishda birinchi navbatda ilm-u ma‘rifatni targ‘ib qilishga e‘tibor qaratgan. Shu asnoda Xorazmshoh Ma‘mun ham buyuk bilim sohibi bo‘lgan Beruniyning otdan tushib qarshi oladi. Buni Xorazmshoh tilidan aytilgan quyidagi fikr orqali ham bilib olishimiz mumkin:

Ilm hech vaqt hech kishini izlab kelganmas,  
Hamma ta‘zim qilib borar ilm qoshiga[2:49].

Dostonda o‘sha davrda Xorazm ilm-u ma‘rifat taratuvchi diyor sifatida Ma‘mun akademiyasida amalga oshirilgan turli xil tadqiqotlar qalamga olinadi. Shu jumladan, Beruniyning Xorazmning bosh mirobi lavozimini sidqidildan bajarganligi: Amudaryo suvining tanqidligi yuzasidan to‘g‘onlar qurdirganligi hamda suvni amaldor va avom o‘rtasida teng taqsimlagani kabi manzaralar haqqoniy tasvirlanadi. Asarning keyingi o‘rinlarida, xususan, shoh bilan bo‘lgan majlisda Beruniy va Ibn Sino o‘rtasidagi qizg‘in suhbat va munozaralar keltiriladi. Beruniy va Sino Bag‘dodda "Bayt- ul hikma"da birga faoliyat yuritgan davrlar Beruniy tilidan berib boriladi hamda Beruniy Ibn Sino qalamiga mansub quyidagi baytni keltiradi:

Mehnati bedorlikka oshno bo‘l, ey rafiq,  
Barcha yo‘llar ichra senga shu asl yo‘l, ey rafiq,  
Bu jahonda bemashaqqat qo‘lga kirmas baxt qushi–  
G‘aflat uyqusi-la bo‘lsin o‘zga mashg‘ul, ey rafiq[2:63].

Xorazmda Ibn Sinoning tibbiyotga doir kashfiyotlari, shu jumladan bezgakka qarshi davo topganligi hamda ko‘z ilg‘amas jarosimlar– mikroblar sababli kasalliklar yuzaga chiqishini aniqlaganliklari bayoni berilgan. Shu jumladan, Abu Ali ibn Sino tomonidan Beruniyning el-yurt ravnaqi uchun qo‘l urgan yumushlari, Jayhunning qurib qolish tahdidiga chora-tadbir ko‘rganligi aytib o‘tiladi. Bunga javoban olim al-Xorazmiyning quyidagi hikmatomuz fikrini aytgan: "Misr— Nilning farzandidur, Xorazm— Jayhunning". Asar sujeti davomida Ibn Sino va Beruniy o‘rtasida xat orqali

o‘zaro qilingan ilmiy munozaralarga to‘xtalib o‘tiladi. Tarixiy manbalarda ikki olim: Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali ibn Sino yozishmalar orqali ilmiy bahs, savol-javoblar o‘tkazib borishgan. Bu haqida Ibn Sino asarlarida birida Xorazmdan yuborilgan savollar, deb alohida qayd qilishi mazkur fikrni tasdiqlaydi[3:105]. Majlis davomida Beruniy yerni yumaloq— "kurrai arz" ekanligini, yer quyoshning atrofida aylanishi haqidagi farazlarini keltirib o‘tadi:

Mantiq shulkim, yer aylanib turar, ehtimol,  
Yo‘li — quyosh tegrasida, aylanma bir yo‘l...  
Oy, quyosh, yer, yulduzlar ham, ko‘rdik yumaloq, —  
Oqibatda yumaloqdir butun samovot![2:74]

Olim butun sayyoralarning dumaloqligini aniqlagan holda, o‘zi ixtiro qilgan kashfiyot — "kurrai mujassama", ya’ni globusni ali mashvaratga ko‘rsatadi. Shuni alohida ta’kidlash joizki, shoh Ma’mun asarda ilm-u irfon homiysi sifatida kitobxon ko‘z o‘ngida gavdalanadi. Biroq guruch kumaksiz bo‘lmaganidek, yurt ravnaqiga, ma’rifatga rahna soluvchi Shayxulislom, Munajjim hamda Qozi Yoqub kabi davlat arboblari ham borki, asar davomida ularning qing‘ir qilmishlari tufayli voqealar keskinlashib boradi, natijada shoh Ma’mun va Mahmud G‘aznaviylar orasida nifoq paydo bo‘ladi. Qizig‘i shundaki, Qozi Yoqub, Munajjim bularning barchasiga Beruniyni sababchi qilib ko‘rsatishadi. Go‘yo Beruniy ona shahrining tor-mor bo‘lishi, ustoz, tarbiyachisi Abu Nasr Arroqning amakisi so‘nggi afrig‘iy Xorazmahoh — Abu Abdullohning taxtdan tushishi hamda shahid bo‘lishi sababli g‘araz niyatlarni o‘ylab, shoh Ma‘munni avrab, Xorazmni tubsiz chohga tortmoqda. Bu bo‘htonlarning barini Qozi Yoqub va Munajjim Sulton Mahmud G‘aznaviyning vaziri Maymandiyga so‘zlab berishadi.

Asarda Beruniy shaxsiyatini ochib berishda Bolta Masxaraboz epizodik obrazining ham ahamiyati katta. U asarda Beruniy va Rayhona o‘rtasidagi sof muhabbatni yuzaga chiqaruvchi omil sifatida gavdalanadi. Omon Matjon dostonning bu qismi orqali beruniy shaxsiyatini ochib beradi. Uning kamtarligi-yu oddiy savodsiz xalq vakili bo‘lgan Bolta masxaraboz bilan samimiyligi asarga o‘zgacha ruh bag‘ishlaydi. Asarda oddiy omi xalq bilan bog‘liq voqealar bayon etilmagan bo‘lsa-da ularning tilidan Bolta Masxaraboz so‘zlaydi. Beruniy bilan Bolta Masxaraboz o‘rtasidagi suhbatda uning xat, savodi yo‘q ekanligi oydinlashadi: u usturlobni, ya’ni samoviy jismlarning harakatini o‘lchovchi asbobni sichqon ovlovchi qopqon deb o‘ylaydi. Shunda olim uning oddiy qopqon emas, balki yulduzlarni ushlovchi

“qopqon” ekanligini-yu shu asbob vositasida buyuk olim bir ming yigirma to‘qqizta yulduzni kashf qilganini aytadi. Suhbat davomida masxaraboz tilidan Beruniyning yetim bo‘li ulg‘ayganligi hamda ustoz Arroq tarbiya topganligi kabi tarixiy faktlar keltiriladi. Masxaraboz suhbat chog‘ida o‘zining ham olim kabi yolg‘iz o‘sganligini aytib, qismatining achchiq ekanligidan, garchi ilm olishni, savodli bo‘lishni orzu qilsa-da, taqdir unga kulib boqmaganidan afsuslanadi. Shunda xalq holidan o‘zini yiroq tutolmaydigan olim unga xat-savodni o‘rgatishga yordam berishini aytib, tasalli beradi. Xalqning qalbi ham Buruniy bilan ekanligi Bolta obrazi orqali ochib beriladi, Bolta olim bilan suhbatlashar ekan, u haqida razolat tarafdorlari bo‘lgan shaxslar turli bo‘htonlar tarqatib, uni xalqqa yomon ko‘rsatishga urinayotganliklari, biroq shunga qaramasdan hamma shahar aholisi ulug‘ ustoz haqida faqat iliq so‘zlar aytishlarini bayon etadi. Asarning yettinchi manzarasidan asar sujeti turli to‘qnashuv, konfliktga boy tarzda kechadi. Mahmud G‘aznaviy tomonidan shoh Ma‘munga qo‘yilgan talablar uning asl maqsadi yurtni egallash ekanligidan dalolat beradi. Sakkizinchi manzarada Beruniy, Ibn Sino, Masihylarning ilm- fanga oid qarashlari bayon etilgan bo‘lib, Beruniyning yosh olim Ibn Sinoga bergan g‘aroyib savollari va unga shogird olimning yechimlari berilgan. Beruniy To‘qqizinchi manzarada Munajjim va Qozi Yoqublarning Alp teginga yuborgan soxta xati orqali yurtni tanazzulga yuz tutish manzaralari ko‘rsatilgan. O‘ninchi manzarada esa Beruniyning ustoz Arroq bilan bo‘lgan suhbat hamda suhbat davomida buyuk olimning G‘arbda — Bahrul Muhit ortida katta bir qit‘a borligi haqidagi farazlari berilgan. Asarning xotima qismi hisoblanuvchi ushbu manzarada Xorazmning Mahmud G‘aznaviy tomonidan egallanishi hamda Beruniyning majburan G‘aznaga asir qilib olib ketilish voqealari berilgan.

Biz ushbu dostonning mantiqiy davomi sifatida shoirning "Haqqush qichqirig‘i" nomli qirq afsonaning o‘ttiz oltinchisi — "O‘n uchinchi eshik" afsonasini keltirishimiz mumkin. Tarixdan ma‘lumki, Mahmud G‘aznaviy Xorazmni bosib olganda barcha olim-u fuzalolarni asir qilib G‘aznaga olib ketadi. Asarda Sulton Mahmud portreti yuksak mahorat bilan chizilgan:

Sovuq cho‘g‘lar o‘ynar ko‘zida —  
Do‘zax qushi ochganday bola;  
Qarashidan tuproq yuziga  
Yog‘ib turar kulfat va nola[4:120].

Ijodkor zolim sulton ta'rif- tavsifini jami o'ttiz misrada keltiriladi. So'ng Hasan Maymandiy Beruniyning shoh huzuriga keltiradi va shohning qulog'iga olim haqidagi mishmishlarni yetkazib, shoh ko'nglini oladi. Maymandiyning bu holatini shoir quyidagicha keltiradi:

Nodon qulga go'yo erk emas,  
Xo'jasining shodligi kerak[4:122].

G'aznaviy ham Beruniyning bashoratchi ekanligini eshitib, uni keltirishlarini buyuradi, shoh o'zicha yuksak ilm egasi bo'lgan buyuk zotni shu tahluka sinovdan o'tkazmoqchi bo'ladi. Lekin Beruniy Sulton Mahmudning huzuriga o'ziga xos g'urur va matonat bilan kirib kelib, shohning telbalarcha qilayotgan ishini kinoya bilan tilga oladi:

Sultonlarga bizdan ne darkor,  
Tinch qo'yarmi axir bu zolim?  
Dil xushlashi uchun hukmdor  
Endi kerak bo'ptimi olim?![4:122]

Xullas, Sulton Mahmud G'aznaviy olimning "bashoratchi" ekanligini sinovdan o'tkazmoqchi bo'ladi va shoh o'zining saroyda mavjud eshiklarning qaysi biridan chiqib ketishini Beruniyga topishni buyuradi. Bu holdan saroydagi barcha a'yonlar sarosimaga tushadilar. Saroy ahli va xonning holatini Omon Matjon quyidagi misralar orqali tasvirlaydi:

...G'azna uzra bo'y cho'zmishdi bot,  
Haybatli va qo'rqinchli saroy.  
Bunday shiddat, bunday mahobat  
Bag'dodda ham yo'qdir hoynahoy.  
Ichkarisi vahm bir dunyo,  
O'n ikkita eshigi bordir[4:123].

Ushbu misralar afsona davomida uch marotaba qo'llanadi. Hamma Beruniyning javobini kutayotgan bir paytda u qog'oz va qalam so'raydi va o'z javobini shohga taqdim etadi. Ahli saroy Beruniyning javobi mos keldimikan, deb o'ylanayotgan vaqtda G'aznaviy nogahon o'ziga "o'n uchinchi eshik"ni ochtiradi va shu eshikdan chiqib, qaytib keldi xatni vazirga o'qishga farmon beradi. Beruniyning javobini eshitgan saroy ahli uning aql-u zakovatiga lol qoladilar, uning javobi shunday edi:

Kimning agar bor taxti toji,  
Kuch-qudrati dog'i ustuvor, —

Qay tomonga yuz bursa — hajdir,

Qay tomonga shahd etsa — yo‘l bor! [4:124]

Ushbu afona orqali biz olim idroki, jasorat va g‘ururiga bevosita guvoh bo‘lib, uning tafakkuriga tan beramiz. G‘aznaviydek zolim sulton qarshisida mag‘rurlik bilan hech kim xayoliga keltirmas jumboqni, "o‘n uchinchi eshik"ni kashf qilgan Beruniy shunday qaltis vaziyatlardan, tahlikalardan o‘zining ilm-u idroki bilan o‘tib, biz avlodlarga buyuk ilmiy asarlar, kashfiyotlar qoldirgan.

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki, Omon Matjon ushbu asarlari vositasida Renessans davrining buyuk siymosi – Beruniy shaxsiyatini, uning ilmiy faoliyati to‘laqonli ochib berdi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi, albatta. Beruniy shoir ijodida xoh bosh obraz, xoh epizodik obraz bo‘lsin, barida el-yurt ravnaqi, taraqqiyoti uchun xizmat qilgan Uyg‘onish davrining tipik vakili sifatida gavdalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. To‘xta Boboyev. Adabiyotshunoslik asoslari. TOSHKENT — "O‘ZBEKISTON" – 2002.
2. Abror Xidirov. Uyg‘onish. Abu Rayhon Beruniy. Toshkent–2024.
3. Omon Matjon. Yonayotgan daraxt. G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti.1977.
4. Omon Matjon. Haqqush qichqirig‘i. G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti.19